

O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko‘rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2021- yil yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 500,1 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etdi.

Tarmoqlar kesimida o‘rtacha oylik ish haqi (2022- yil 1- yanvar holatiga qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

(dastlabki qayta hisoblangan)

	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘mda
Qashqadaryo viloyati bo‘yicha - jami	2 500,1
<i>shu jumladan:</i>	
Sanoat	3 958,2
Qurilish	3 445,2
Savdo	2 213,1
Tashish va saqlash	3 545,7
Axborot va aloqa	3 155,9
Moliya va sug‘urta faoliyati	6 728,3
Ta‘lim	2 053,4
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	1 776,4
Boshqa faoliyat turlari	2 745,9

O'rtacha oylik ish haqining tarmoqlar kesimida, ming so'm (2022- yil 1- yanvar holatiga)




O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat tumanlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qarshi shahrida 3 377,9 ming so'mni (135,1 %), G'uzor tumanida 3 252,7 ming so'mni (130,1 %), va Muborak tumanida 2976,2 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 119,0 %), tashkil etgan bo'lsa, Yakkabog' tumanida 1787,0 ming so'mni (71,5 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi hududlar kesimida ¹⁾
(2022- yil 1- yanvar holatiga)

	<i>Mehnat resurslari soni</i>	<i>O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (ming so‘mda)</i>
Viloyat bo‘yicha:	x	2 500,1
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	x	3 377,9
Shahrisabz	x	2 160,9
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	x	3 252,7
Dehqonobod	x	2 321,7
Qamashi	x	1 946,1
Qarshi	x	1 858,6
Koson	x	2 061,1
Kitob	x	1 840,3
Mirishkor	x	1 979,3
Muborak	x	2 976,2
Nishon	x	2 326,5
Kasbi	x	1 833,2
Chiroqchi	x	2 174,5
Shahrisabz	x	2 121,8
Yakkabog‘	x	1 787,0

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (ming so‘mda)

¹⁾dastlabki ma’lumot



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021- yil yanvar-dekabr oylarida 822,0 ming so'mni tashkil etgan. Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 18- yanvardagi 47- sonli qaroriga binoan mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi va 1,2,3- razryadlari koeffitsiyentlari) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.